

GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY QO'SHIQLAR ASOSIDA TALABALARNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASH MEKANIZMLARI

Uspanova Rano Anuarovna
O'zDSMI Nukus filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Globallashuv davrida milliy qo'shiqlar asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash mexanizmlari takomilida o'zbekistonda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik g'oyasini hayotga tatbiq etish haqida so'z etilgan.

Kalit so'zlar: Global, innovatsion, yoshlar, baynalminallik, tarbiya, ta'lim, qo'shiq, musiqa, talabalar, interaktiv, millatlararo munosabatlar.

Аннотация: В эпоху глобализации в совершенствовании механизмов воспитания студентов в духе межнационального согласия на основе национальных песен говорится о реализации идеи межнационального согласия и межрелигиозной толерантности в Узбекистане.

Ключевые слова: Глобальный, инновационный, молодежный, интернационализм, воспитание, образование, песня, музыка, студенты, интерактивный, межнациональные отношения.

Abstract: In the era of globalization, the improvement of mechanisms for educating students in the spirit of interethnic harmony based on national songs speaks about the implementation of the idea of interethnic harmony and interfaith tolerance in Uzbekistan.

Key words: Global, innovative, youth, internationalism, upbringing, education, song, music, students, interactive, interethnic relations.

Global innovatsion indeksda rivojlangan mamlakatlarda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 yilgacha belgilangan yangi ta'lim kontseptsiyasida "respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash, ularning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik" dolzarb vazifa etib belgilangan. [1]

Oliy ta'lim tizimida milliy qo'shiqlar asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashdan ko'zlangan maqsad – millatlararo munosabatlar va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yanada rivojlantirish, respublikamiz oliygohlarida tahsil olayotgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish bilan bir qatorda milliy musiqa

san'atimiz, musiqa asarlari, musiqiy risolalar, cholg'u sozlari ijodkorligi hamda musiqaning psixologik va pedagogik ta'sirini, tarbiyaviy ahamiyatini o'quv-tarbiya amaliyoti bilan uyg'unlashtirish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekiston xalq shoyri, taniqli faylasuf Abdulla Sherning fikricha insoniyat madaniyati tarixida san'at va fan bir-biriga yaqin ma'naviy hodisa... ularning har ikkisi ham bir vazifani bajaradi, voqelikni inkor ettiradi. Faqat san'at buni muayyan, fan mavhum tarzda amalga oshiradi. [3]

San'at va fanning o'zaro munosabati ushbu tadqiqot mavzusida xalq qo'shiqlari san'at hodisasi, tolerantlik tarbiyasi fan sifatida o'z aksini topgan.

Shuning uchun ham mazkur muammoning dolzarbligini belgilovchi omil bir tomondan jamiyat ehtiyoji bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan talabalarning etnomadaniy talablarini o'rganish, ularda vatanparvarlik, millatlararo bag'rikenglik mavzularidagi, oilaviy qadriyatlarni, millat va elatlarning O'zbekistonda yashab o'tgan va istiqomat qilayotgan, jahon tsivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shgan atoqli namoyandalari ma'naviy-madaniy va ilmiy merosini targ'ib qiluvchi materiallarni yoritish amaliyotini kengaytirish dolzarb pedagogik muammo sifatida ilmiy nazariy jihatdan o'rganishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda keyingi yillarda qabul qilingan bir qator hujjatlar yosh avlodni ko'p millatli O'zbekiston xalqining tarixiy o'tmishi va an'alariga hurmat ruhida tarbiyalash hamda tolerantlik, millatlararo totuvlik tuyg'usini takomillashtirish sohasida samarali me'yoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini berdi. Bu davrda ta'lim dargohlarini chinakam ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash, ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, millatlar va madaniyatlararo munosabatni takomillashtirishga oid metodik qo'llanmalar, darsliklar bilan ta'minlash masalalariga e'tibor qaratilmoqda. [2]

Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarida “Yoshlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans” , “Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash, yosh avlodni yangiliklarni tez idrok etib, o'z faoliyatida qo'llaydigan ijodkor qilib tarbiyalash oliy maktab pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Milliy qo'shiqlar asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash mexanizmlari takomilida o'zbekistonda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik g'oyasini hayotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilayotganligi, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni rivojlantirish uchun barcha huquqiy asos va zarur shart-sharoitlar yaratilayotganligi, shuningdek, bag'rikenglik madaniyatini

mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib borayotganligi masalalari alohida o‘rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangi ijtimoiy ehtiyoj va zamonaviy talablarga mos jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishga doir olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning mazmun mohiyati yoshlarni baynalminallik ruhida tarbiyalash, ularda mehr-oqibatlik, mas‘uliyatlik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni tarkib toptirish, ularda “Yagona Vatan” tuyg‘usini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu borada xalq qo‘shiqlari vositasida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. QMMB. 9.10.2019. 06/19/5847/3887.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 06/22/165/0615. <https://lex.uz/uz/>
3. Abdulla Sher. Estetika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. 262-bet.
4. Moyanov Iqlasbay Jiyenbaevich, Raxmanbergenov Nurjigit “ÓZBEK ÚRP-ÁDET HÁM LIRIKALIQ QOSIQLAR”, “Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari” ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2024. – 142-145 b.
5. Moyanov I. TRAINING AND DEVELOPMENT OF ART PERSONNEL //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 65-69.
6. Jiyenbaevich M. I. COMPETENCE-BASED APPROACH IN HIGHER MUSICAL AND PROFESSIONAL EDUCATION //PROMINENCE OF INFORMATION BASES& MEDIA ASSESSMENTS IN THE POST CONFLICT MARKETING ENVIORNMENT.
7. Moyanov I. TRAINING AND DEVELOPMENT OF ART PERSONNEL //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 65-69.